KARYERA VA KREATIVLIK

Mirshokirova Gulchehrabonu Shuxrat qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

mirshokirovagulchehra@gamil.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Karyera va Kreativlik haqida bayon etiladi.Karyera tushunchasini kelib chiqishi va karyeradagi kreativlikning qay darajada muhimligi, kreativlikdagi muhum xususiyatlar.Liderlikning karyeradagi muhum o'rni va uning bosqichlari.

Kalit so'zlar: Karyera va kreativlik tushunchasi, liderlikning o'rni, karyerani qurishdagi bosqichlar, kreativ g'oyalar.

Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va xushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayt kishilardan yaxshidir.

Amir Temur

Karyera- so'zi turli tuman ma'nolarga ega. Ushbu atama Oksford inglizcha tarjimasida "insonning hayot davomidagi yo'nalishi yoki rivojlanishi" deb keltirilgan. Ba'zi bir manbalarda esa "karyera" "carrus" so'zidan kelib chiqqan ekanligi takidlangan. Onlayn etimologiya lug'atida 1803- yildan boshlab "obro" atamasi bilan aytilgan ya'ni "odamning jamoat yoki kasbiy hayoti" degan ma'nolarda qo'llanilgan. Hozirgi kunga kelib esa karyera tushunchasi bu moliyaviy barqarorlik ya'ni ish va shaxsiy hayotdagi muvozanat hamda shaxsiy qiziqishlar ko'ra insonlar umri davomida shug'ullanishni xohlaydigan soha hisoblanadi. Hozirgi zamonda ushbu tushunchadan juda ko'plab insonlar foydalanib kelishmoqda. Har bir insonni o'z karyerasi, o 'z yo'li bor deya olaman. Insonlar bir xil yo 'lda yurishdan zerikishganliklari sababdanmi , barcha yangi narsalarni sinab ko'rish uchun o'z yo'llarini, rejalarini o'zgartirib turishmoqda. Bir xillik insonlarni shu

darajada charchatganki , zamon rijovlangani sari yangidan-yangi sohalar yaratilmoqda. Bulardan biri IT va sun’iy intelekt (AI). Sun’iy intelekt zamonamizga kirib kelishi bilan butun insoniyat onson ish qilish tarafdori bo‘lib qoldi ya’ni karyeraga xohishlar soni kamaya boshladi. Men bu bilan sun’iy intelektni qoralamoqchi emasman. Ushbu yangilikdan foydlanib qolish kerak degan tarafdaman ya’ni AKT rivojlangan davlatda yashab kelmoqdamiz. Karyera qilish istagida bo‘lgan insonlar atrofimizda talaygina va ular uyda o‘tirgan holatda ham o‘z karyeralarini yo‘lga qo‘yishgan. Buni imkoniyatdan to‘g‘ri foydalanish desak bo‘ladi. Bundan kelib chiqadiki AI ya’ni Sun’iy intelektdan foydalangan tazda odamlar o‘z karyeralarini yarata oladilar.

Karyerani qanday boshlasak bo‘ladi? Karyera o‘zi nimadan tashkil topgan? Karyera va ishning farqi nimada? Degan savollar har bir insonda paydo bo‘lishi bu tabiiy holat. Karyerani boshlashda birinchi navbatda kreativlik kerak bo‘ladi. Kreativlik bo‘lmasa, yangi g‘oyalar bo‘lmasa karyera ham yo‘q tushunchaga aylanadi. Kreativlik orqali yangi g‘oya paydo bo‘ladi so‘ngra reja tuziladi va o‘sha ish rejasi puxta o‘ylab chiqiladi va albatta tavakkal qilish asnosida Karyera shakillanadi. Agar bular bo‘lmasa barcha rejalar oddiylikdan iborat bo‘lib qolishi mumkin. Sizni ishingizni ko‘rib, hech kim hayratlanmaydi va siz bilan ishlash fikri hech kimda paydo bo‘lmaydi. Bundan so‘ng biznes poyoniga yetadi va sizni bankrot bo‘lish kutib oladi. Karyera yo‘lari ikki qismni tashkil qiladi, bular quyidagilar:

1. Vertikal-bunda shaxs yuqoriga yoki rahbarlik lavozimigacha ko‘tarilishi.
2. Gorizantal- bunda shaxs kompaniya yoki bo‘limdagi lavozimga o‘tish.

Karyera tanlashda asosiy omillardan biri bu ish va hayot muvozanatidir. Ish yani karyerasi insonning shaxsiy hayotiga, oilasiga va dam olishiga halaqit bermasligi kerak. Ya’ni yuqorida aytib o‘tilgandek Vertikal yo‘ldan borish bu pastdan tepaga qarab ko‘tarilishdir. Bu huddi zinaga o‘xshaydi. Zinalardan ko‘tarilar ekansiz yuqori pog‘onada sizni katta lavozim kutib turadi. Gorizantal esa bir sohadan boshqa sohaga o‘tish. Masalan; sotuv bo‘limidan marketingga o‘tish. Bunda lavozim darajasi bir xil qoladi lekin tajriba va

ko‘nikma ko‘payadi. Bundan tashqari karyera boshlamoqchi bo‘lgan inson stressga chidamli bo‘la olishi zarur. Shu bilan birga vaqtni boshqara olish ko‘nikmasini ham shakillantirgan bo‘lishi kerak. Karyera tanlashda eng muhumi bu maqsadning borligidir. Maqsadsiz hech narsaga eshira olmaydi inson. Qachonki maqsad mavjud bo‘lsa unga asoslangan holatda reja tuziladi, so‘ngra rejalar asnosida strategiya yaratiladi. Oxirgi bosqich esa karyerani shakllantiradi. Albatta qiziqishlar ham muhumdir. Inson o‘z qiziqishlariga tayangan holatda o‘z kelajagini yaratadi.Odamlar karyera qurishda bir qancha sabablarga tayangan holatda qaror qabul qilishadi, bular:

1. Yaxshi ish va hayot muvozanati
2. Qiziqish va ishtiyoq
3. Moliyaviy barqarorlik
4. O’zgalarga yordam berish imkonini beruvchi sohada ishlash istagi
5. Umr bo‘yi oldingi qo‘yilgan maqsad va ambitsiyalarga erishish
6. Ma’qul keladigan ish muhiti
7. Ta’lim va trening uchun talab qilinadigan vaqt
8. Ish o‘rinlari va resurslarning mavjudligi

Ish karyeraga aylanishi mumkin, ammo karyera odatda ishga aylanmaydi. Har bir inson uning farqini anglay olishi lozim.

Ish-bu haq evaziga bajaradigan har qanday faoliyatdir. U vaqtinchalik yoki uzoq vatqli bo‘lishi mumkin. Haq olishda esa kunlik, soatlik yoki oylik olish mumkin. Shu bilan birga ish qo‘shimcha imtiyozlarga, sug‘urtalarga ega bo‘lishi mumkin.

Karyera - bu esa kasbiy jihatdan yuksalish uchun amalga oshiriladigan turli xil faoliyatlar majmuasidir.

Bundan kelib chiqadiki Ish - bu hozirgi ehtiyoj, Karyera - esa kelajakdagi strategiyadir.

Yuqorida takidlaganimdek karyera kreativliksiz paydo bo‘lmaydi. Kreativlik- bu madaniyat vositasi asosida shaxs sifatida shakillanish jarayonida namoyon bo‘ladigan

shaxsning shaxsiy sifatlari. Ya’ni bu insonning shaxsiy xususiyatlari bo‘lib, uning o‘z-o‘zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi hisoblanadi. Kreativlik ikki jarayonni o‘ziga qamrab oladi. **Fikrlash so‘ngra amalga oshirish.** Agarda insonda ajoyib va o‘zgacha g‘oyalar bo‘lsa-yu, lekin buni amalga oshirmasa bu shunchaki xayolparastlik, kreativlik emas.

Rollo Mey “Yaratish jasorati” da takidlagandek “kreativlik-bu borliqqa qandaydir yangi narsani olib kirish jarayonidir. U ishtiyoq va fidoyilikni talab qiladi.U bizga oldin yashirin bo‘lgan narsani ochib beradi va yangi holatni yaratishga ishora qiladi. Bu yuqori ong darajasidagi tajriba ya’ni jo‘shqinlikdir.

“Siz o‘z davringizdan 20 yil emas, balki 15 daqiqa oldin bo‘lishingiz kerak” degan fikr ilgari suriladi. Shundagina siz kreativ shaxs bo‘la olasiz. Barcha yangi g‘oyalar doimo bir qadam oldin yurgan odamda paydo bo‘ladi. Hayotni sur’at deb tasavvur qilsak, har bir inson unga har xil qaraydi. Ba’zilar faqat oq qora rangda ko‘rsa, ba’zilar bir yoki ikki xil rangda ko‘radi, kreativ inson esa buni turli xil ranglarda ko‘radi. Hamma ham kreativ fikrlay olmaydi. Bir kitobni mutola qilishni boshlaganingizda. Siz savol berishni boshlasangiz, nimaga bunday bo‘ldi, nima uchun yozuvchi qahramonni o‘ldirdi, boshqa yo‘l tutsa ham bo‘lardi-ku? Deb o‘ylay boshlasangiz. Bu holatga yetgan insonlardagina fikrlash paydo bo‘ladi, fikr mukammalashsa, u g‘oyaga aylanadi, g‘oya noodatiy xolatni talab qilsa, bu kreativlik bo‘ladi.

Kreativlik doimo oldinda bo‘lishni talab qiladi. Ya’ni ertani kutmasdan bugun qaror qabul qilish kerak. I.S.Turgenev shunday fikrni ilgari surgan “Ertaga so‘zi qat’iyatsiz kishilar va bolalar uchun o‘ylab topilgan”.

Kreativlik va Karyera bir birga bog‘liq tushunchalar. Shu bilan birga Lider so‘zi ham ushbu obyektning ichiga kirib ketadi. Aytilgandek kreativlik sabab karyera paydo bo‘lishi, shundan so‘ng inson liderlik qobiliyatiga muhtoj bo‘lib qolishi mumkin. Inson o‘z karyerasini qurganda, biznesini boshlaganda unga yordam beruvchi odamlar ko‘payadi. Shu qatorda u o‘z guruhiga boshchilik qilishi, ularga yo‘l ko‘rsata olishi kerak. Shu sababli

ham inson liderlik qobiliyatini o‘zida shakllantira bilishi lozim. Liderlik o‘zi nima? degan savol paydo bo‘ladi. Lider - bu har doim jamoasi uchun qayg‘uradigan, uning shaxsiy yutuqdan ko‘ra jamoaviy yutuqlar muhum hisoblagan, qiyin vaziyatlarda aql-zakovati bilan olib chiqib keta olgan shaxs bu lider hisoblanadi. O‘z hamkasblarini fikrini tinglay olgan va ular bilan birgalikda mehnat qilgan inson bu lider. Shu sababli ham karyera qilayotganda liderlik va kreativlik qobiliyatlari eng muhum jihtlar orasida birinchi navbatda turadi.

Karyera yaratishda birinchi navbatda qanday yangi g‘oyalar paydo bo‘lyapti? Manashu savolga toba olish kerak. Ya’ni hozirgi rivojlangan zamonda kreatriv g‘oyalar juda ko‘p. Har kuni yangidan yangi g‘oyalar ishlab chiqilmoqda. Raqobatchilar ham talaygina. Ular bilan nizoga bormasdan yoki bir xillikdan qochish maqsadida inson tafakkur qila olishi zarur. Ya’ni raqobatdoshni kuzatib undan o‘rganish zarur. U nima yaratyapti? Qanday g‘oyani ilgari surmoqchi? Degan savolni ba’zi-ba’zida inson o‘ziga berib turishi kerak. Zero bu sizning yaratgan go‘ya u insonniki bilan bir xil bo‘lib qolishidan saqlaydi va siz undanda yaxshiroq g‘oyalar o‘ylab topishga undaydi. Xato qilsangiz ham keyingi safar bu xatoni qilmaslikka undaydi. Sababi siz doimo fikrlaysiz, o‘zingizni tahlil qilasiz va yangidan - yangi ishlarni izlaysiz. Buni bari kareya va kreativlik mahsuliga aylanadi.

Xulosa qilib aytganimizda barcha siru-asrorlar tagida fikrlash yangi narsalar yotadi. Yangilik izlagan har bir kishi o‘zi istagandan ko‘ra ko‘prog‘iga erisha oladi. Karyera qilishda ham doimo rivojlanishdan, o‘z ustida ishlashdan charchamagan va doimo yangi g‘oyalar ishlab chiqqan inson bu zamonda yutuqga erishadi. Shu bois ham hayotimiz davomida shunchaki yashab o‘tib ketmaylik. Qiynalaylik, sarguzashtlar izlaylik, yangi narsalarni sinab ko‘raylik va eng muhimi o‘zimizga eng yaxshi hayotni sovg‘a qilaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Liderlar kitobi
2. Kreativ fikrlash

3. Karyera qilish qonunlari

Foydalanilgan manbalar:

1. https://www.creativityatwork.com/what-is-creativity/
2. https://cyberleninka.ru/article/n/kreativlik-nima-u-pedagogga-nima-uchun-kerak/viewer
3. https://www.coursera.org/articles/career-definition
4. https://bkm-buxdu.uz/posts/karyera-haqida/detail.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Karyera
6. https://www.oriens.uz/media/journalarticles/50_Polatov__Rozimurod_Farhod_ogli_321-327.pdf